

## **Oncomorphology.**

### **Lecture-8. Epithelial tumors without specific location**

**Lecturer: Avazbek Mamataliyev Ro'zuvaevich, Docent, Candidatus**

#### **Medicine**

#### *Nazorat savollari*

#### *Assignment*

1. Yomon sifatli o'smalarning mikroskopik turlarini sanab bering?
2. E.Ivanovskiy bo'yicha bolalardagi o'smalarni klassifikasiyasini ayting?
3. Adenokarsinoma rivojlanishi va a'zo-to'qimaga ta'siri?
4. Fibroz rakni tushuntiring?
5. Papilomalarni uchrash joylarini aytib bering?

#### **Javoblar:**

#### **1. Yomon sifatli o'smalarning mikroskopik turlarini sanab bering?**

- «o'rnidagi rak» (carsinoma in siti)
- yassi hujayrali (epidermal) muguzlanuvchi va muguzlanmaydigan rak
- adenokarsinoma (bezsimon rak)
- shilimshiq (kolloidli)
- solid (trabekulyar, ko'rkam).
- mayda hujayrali
- fibroz (skirr)
- medulyar (adenogen) rak

#### **2. E.Ivanovskiy bo'yicha bolalardagi o'smalarni klassifikasiyasini ayting?**

- teratomalar
- embrional o'smalar
- "kattalar shaklidagi" o'smalar

#### **3. Adenokarsinoma rivojlanishi va a'zo-to'qimaga ta'siri?**

Shilliq qavat va bezlarni prizmatik epiteliysidan rivojlanadi. Shuning uchun u shilliq qavatda ham bezsimon a'zolarida ham uchraydi. Adenokarsinomada epiteliy hujayralarini atipizmi kuzatiladi. Ular turli shaklda bo'lib, yadrolari giperxromdir. O'sma hujayralari turli shakl va kattalikdagi bezsimon tuzilmalari hosil qilib, atrof to'qimaga o'sib kiradi, uni yemiradi.

#### **4. Fibroz rakni tushuntiring?**

Judayam atipik giperxrom yadroli, hujayrali dag'al biriktiruvchi to'qima tolalari orasida joylashgan rakni differensiyalashmagan shakli. Bu o'sma o'zini erta metastaz berishi bilan xavfli bo'ladi.

#### **5. Papilomalarni uchrash joylarini aytib bering?**

Papilloma sharsimon shaklda bo'lib, ushlab ko'rilganda qattiq yoki yumshoq, yuzasi so'rg'ichsimon, o'lchami tariq donasidan yirik no'xot donasi kattaligida bo'ladi, teri va shilliq qatlam yuzasida kalta yoki uzun oyoqchasi bilan joylashgan bo'lib, teri va og'iz bo'shlig'ini shilliq qavatidan, chin ovoz boylamida, buyrak jomchalarida, siydik yo'llarida, siydik pufagida uchraydi.

### *Test savollari*

#### **1. Til rakining gistologik shakli eng ko'p uchraydi:**

- A) yassi hujayrali muguzlangan
- B) yassi hujayrali muguzlanmagan
- C) bazal hujayrali
- D) past deferensiallashgan

ANSWER: A

#### **2. Bachadon tanasi saratonida kaysi morfologik forma ko'p uchraydi.**

- A) bezli-yassi xujayrali rak
- B) yassi xujayrali rak
- C) yorug' xujayrali adenokarsinoma
- D) adenokarsinoma

ANSWER: D

#### **3. Servikal kanal adenokarsinomasida ko'p uchraydigan belgi bu**

- A) og'riqlar
- B) menorragiya
- C) Issitma kutarilishi

D) amenoreya

ANSWER: B

**4. Yo‘g‘on ichakda ko‘p uchraydigan xavfli o‘smalar:**

A) adenokarsinoma, yassi xujayrali rak, shilliq rak

B) limfosarkoma

C) angiosarkoma

D) yassi xujayrali rak, sarkoma

ANSWER: A

**5. Assit va plevrit quyidagi yomon sifatli tuxumdon o‘smasiga xos**

A) seroz sistadenokarsinoma

B) disgerminoma

C) granulez xujayrali o‘sma

D) androblastoma

ANSWER: A

**6. Seroz sistadenokarsinoma qaysi davrda kam uchraydi**

A) reproduktiv

B) bolalik davrga

C) premenopauzal

D) postmenopauzal

ANSWER: B

**7. Tuxumdonlar yomon sifatli o‘smalariga qaysi o‘sma kirmaydi.**

A) endometrial sistadenokarsinoma

B) seroz sistadenokarsinoma

C) papillyar sistadenokarsinoma

D) seroz sistadenoma va tekoma

ANSWER: D

**8. Seroz sistadenokarsinomaga xos metaztaz berish yo‘llari bu:**

A) seroz bo‘shliqlar bo‘ylab (implantatsion)

B) limfogen

C) gematogen

D) limfogematogen

ANSWER: A

**9. Endometriy rakoldi kasalligi bu:**

- A) bezli polip
- B) fibrozli polip
- C) adenomatoz
- D) adenomioz

ANSWER: C

**10. Disgerminoma va teratoblastoma ko‘proq uchraydigan davr bu:**

- A) reproduktiv yoshda
- B) bolalik davri
- C) premenopausal davrda
- D) postmenopauzal davrda

ANSWER: B